

QARSHI
DAVLAT
UNIVERSITETI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI
ZOOLOGIYA INSTITUTI

HAYVONOT OLAMINI O'RGANISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari
2024 yil 7-8 noyabr, Qarshi

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ИЗУЧЕНИЯ ЖИВОТНОГО МИРА

Материалы международной научно-практической конференции
7-8 ноября 2024 года, Карши

ACTUAL PROBLEMS AND PROSPECTS OF THE STUDY OF THE FAUNA

Materials of international scientific and practical conference
November 7-8, 2024. Karshi



активация Windows
Чтобы активировать Windows, перейдите в раздел "Параметры".

O'ZBEK RAQAMLI DISKURSIDA PRAGMATIK VOSITALARNING QO'LLANISHI

Pulatova Dildora Dilmuradovna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
katta o'qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Maqolada o'zbek raqamli diskursida qo'llanayotgan pragmatik vositalar o'rganiladi. Murojaat birliklari, baholovchi leksika, sleng, o'zlashmalar, emoji va modal-ekspressiv vositalarning kommunikativ maqsad, emotsional munosabat hamda adresatga ta'sirni ifodalashdagi o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: raqamli diskurs, pragmatik vositalar, pragmalingsvistika, ijtimoiy tarmoqlar, murojaat birliklari, baholash, sleng, emoji, kommunikativ niyat.

O'zbek raqamli diskursida pragmatik vositalarning qo'llanishi zamonaviy kommunikativ ehtiyojlar bilan uzviy bog'liq. Murojaat birliklari, baholovchi leksika, sleng va o'zlashmalar, modal-ekspressiv birliklar hamda emoji kabi multimodal vositalar raqamli muloqotda axborot uzatishdan tashqari, emotsional munosabat, ijtimoiy yaqinlik, baholash va adresatga ta'sir ko'rsatish funksiyalarini bajaradi. O'zbek raqamli diskursini o'rganishda pragmatik vositalarni faqat alohida til birliklari sifatida emas, balki muayyan kommunikativ vaziyat, ijtimoiy munosabat va madaniy kontekst bilan uzviy bog'liq holda tadqiq etish lozim.

Ayrim tadqiqotchilar diskursni til birliklarining muayyan kommunikativ vaziyatdagi qo'llanishi bilan bog'liq murakkab hodisa sifatida talqin qilib, uning ekstralingvistik omillar bilan aloqadorligini ko'rsatadi [Ibotova, 2023]. Ushbu yondashuv raqamli diskurs uchun ham muhimdir. Chunki internet muloqotida bir xil til birligi turli vaziyatlarda turlicha pragmatik mazmun kasb etishi mumkin.

Raqamli muloqotning muhim xususiyatlaridan biri unda kommunikativ vositalarning ixcham va ekspressiv shaklda qo'llanishidir. Yuzma-yuz muloqotda intonatsiya, mimika, imo-ishora va ovoz temбри orqali ifodalanadigan ko'plab ma'nolar raqamli muloqotda bevosita mavjud emas. Shu sababli foydalanuvchi mazkur ma'nolarni boshqa til birliklari orqali yetkazadi. Natijada murojaat shakllari, baholovchi so'zlar, modal birliklar, sleng, emoji va boshqa vositalarning pragmatik vazifasi ortadi.

Murojaat birliklari. O'zbek raqamli diskursida murojaat birliklari kommunikativ munosabatni belgilovchi muhim vositalardan biridir. Masalan, ijtimoiy tarmoqdagi: "Azizlar, bugun sizlar bilan muhim yangilikni bo'lishmoqchiman." kabi murojaatda azizlar leksemasi faqat adresatni nomlash vazifasini bajarmaydi. U kommunikativ masofani qisqartirib, murojaat qiluvchi va auditoriya o'rtasida yaqinlik munosabatini shakllantiradi. Agar shu gap "Bugun sizlar bilan muhim yangilikni bo'lishmoqchiman" shaklida berilsa, axborot mazmuni saqlanadi, biroq murojaatning ijtimoiy-emotsional ta'siri yo'qoladi. Demak, murojaat birligining qo'llanishi kommunikativ mazmunga qo'shimcha pragmatik ma'no yuklamoqda. Bu haqida tadqiqotlarda ham batafsil yoritilgan [Pulatova, 2024]. Xususan, do'stlar, azizlar, qadrlı obunachilar, hurmatli kuzatuvchilar kabi birliklarning tanlanishi nafaqat adresatni belgilaydi, balki so'zlovchining unga nisbatan munosabatini ham ifodalaydi.

Baholovchi va emotsional birliklar. Raqamli diskursda pragmatik mazmunni yuzaga chiqaruvchi vositalarning yana bir faol guruhi baholovchi birliklardir. Masalan: "Bugungi tadbir juda ajoyib o'tdi." gapida ajoyib leksemasi tadbirni nomlamaydi, balki unga nisbatan subyektiv ijobiy bahoni ifodalaydi. Ijtimoiy tarmoqdagi: "Juda zo'r chiqibdi!", "Ajoyib kontent!", "Gap yo'q!" jumllarida esa baholash bilan bir qatorda kuchli emotsional munosabat ham mavjud. Ushbu misollardan gap yo'q birikmasining pragmatik xususiyati ayniqsa e'tiborlidir. Uning lug'aviy shakli mavjud emaslik ma'nosiga yaqin bo'lsa-da, raqamli muloqotda ko'pincha "juda yaxshi", "juda zo'r" "ma'qullayman", "e'tiroz yo'q" kabi ijobiy bahoni anglatadi. Demak, birlikning pragmatik ma'nosi uning lug'aviy mazmunidan ko'ra kommunikativ kontekst orqali aniqlanadi.

N.I. Klushina mediadiskursda emotsional-ekspressiv birliklarning auditoriyaga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga alohida e'tibor beradi [Клушина, 2019]. Raqamli diskursda ham baholovchi va emotsional leksikaning faol qo'llanishi aynan adresatning e'tiborini jalb qilish va uning munosabatini shakllantirish bilan bog'liq.

Sleng va o'zlashma birliklar. Raqamli kommunikatsiyada sleng, o'zlashma va yangi leksik birliklarning faollashuvi ham pragmatik ehtiyojlar bilan bog'liq. Masalan: "Bu video trendga chiqibdi.", "Post juda viral bo'libdi.", "Admin javob berdi." kabi jumalalarda trend, viral, admin birliklari oddiy nominatsiya vositasi bo'lib qolmaydi. Ular ma'lum kommunikativ jamiyatga mansub. Bunday birliklardan foydalanayotgan adresat va kommunikant internet

muhitining umumiy tajribasiga ega ekanini bilish mumkin. Shu nuqtayi nazardan raqamli diskursdagi slengni faqat “adabiy me’yorning buzilishi” sifatida baholash biryoqlama yondashuv bo’ladi. Chunki bunday birliklar muayyan ijtimoiy guruh vakillarini birlashtiruvchi aloqa birliklari vazifasini ham bajaradi. Masalan, yoshlar o’rtasidagi: “Bugungi kontent bomba ekan.” jumlasidagi bomba so’zi o’zining to’g’ridan-to’g’ri lug’aviy ma’nosida emas, balki “juda zo’r”, “ta’sirchan”, “yuqori darajada yaxshi” ma’nolarida qo’llangan. Mazkur birlikning pragmatik mazmuni aynan norasmiy kontekstda yuzaga chiqadi.

Emoji va multimodal vositalar. Raqamli diskursning an’anaviy yozma muloqotdan farqli jihatlaridan biri unda verbal va vizual vositalarning birgalikda qo’llanishidir. Emoji ana shunday vositalardan biri bo’lib, u qisqa yozma xabarining emotsional yo’nalishini belgilashga yordam beradi. Masalan: “*Rahmat* 😊” va “*Rahmat.*” shakllarida asosiy leksik mazmun bir xil. Biroq birinchi variantdagi 😊 belgisi minnatdorlikning samimiy, iliq va norasmiy ohangda ifodalanayotganini ko’rsatadi. Ikkinchi variant esa kontekstga qarab neytral yoki hatto sovuqqon munosabat sifatida qabul qilinishi mumkin. Jabborova raqamli diskursning multimodal xususiyatlarini tahlil qilib, virtual muloqotda verbal va vizual kodlarning o’zaro munosabatiga e’tibor qaratadi [Jabborova, 2025]. Shu jihatdan emoji mustaqil grafik belgi emas, balki matnning pragmatik mazmunini to’ldiruvchi multimodal vosita sifatida baholanishi mumkin.

Raqamli diskursda pragmatik vositalarning tanlanishi kommunikantlarning ijtimoiy munosabatlarini ham aks ettiradi. O’zbek ijtimoiy tarmoqlari diskursidagi xushmuomalalikning sotsiolingvistik xususiyatlarini o’rgangan tadqiqotchi kommunikativ birliklarning tanlanishi ijtimoiy munosabat va kommunikativ strategiyalar bilan bog’liqligini ko’rsatadi [Abdullazoda, 2025].

Misollar orqali tahlil qiladigan bo’lsak, “*Iltilmos, ma’lumotni yuborib qo’ying*” va “*Ma’lumotni yuboring*” shakllari bir xil harakatni anglatadi. Biroq iltimos birligining mavjudligi murojaatning yumshoqroq va xushmuomalaroq shaklini yuzaga keltiradi. Raqamli muloqotda bunday vositalar ayniqsa muhim, chunki yozma xabarda intonatsiya mavjud emasligi sababli buyruq, iltimos yoki tavsiya o’rtasidagi farq faqat leksik va kontekstual vositalar orqali aniqlanishi mumkin. Shuningdek, bir pragmatik vosita turli kontekstlarda turlicha ma’no kasb etishi mumkin. Masalan, “*Zo’r!*” shakli samimiy maqtov, kinoya yoki norozilikni ifodalashi ham mumkin. Uning qaysi ma’noda qo’llanganini aniqlash uchun kontekst, oldingi xabarlar, kommunikantlar o’rtasidagi munosabat va boshqa multimodal belgilar hisobga olinishi lozim. Bu holat raqamli diskursdagi pragmatik tahlilning faqat alohida so’z yoki belgini emas, balki butun kommunikativ vaziyatni qamrab olishi kerakligini ko’rsatadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o’zbek raqamli diskursini o’rganishda pragmatik vositalarni faqat alohida til birliklari sifatida emas, balki muayyan kommunikativ vaziyat, ijtimoiy munosabat va madaniy kontekst bilan uzviy bog’liq holda tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibotova M. Diskurs tushunchasi va unga lingvistik yondashuvlar. Scientific Progress. Volume 4, Issue 4, 2023. –P. 217-220.
2. Pulatova D. O’zbek tilida murojaat shakllarining sotsiopragmatik tadqiqi. Filol. fanl. b. fals. dokt. (PhD) diss. – Qarshi, 2024. – 144 b.
3. Клушина Н.И. Медиастилистика и эмотивная лингвистика. Известия ВГПУ. филологические наук 2019. – С. 158-161.
4. Jabborova M. Virtual and multimodal discourses in the Uzbek language: an analysis of cultural codes. International journal of artificial intelligence. American Academic publishers, volume 05, issue 12, 2023. –P. 2088-2091.
5. Abdullazoda M. Sociolinguistic Features of Politeness in Uzbek Social Media Discourse // American Journal of Philological Sciences. – 2025. – Vol. 05, Issue 05. – P. 21-23.
6. Воронцова Т.А., Патрушева Л.С. Формирование социолекта в интернет- коммуникации. Филологический класс, 3(53)/2018. –С. 60-66.